



EOC
EUROASIAN
ONLINE
CONFERENCES

SPAIN CONFERENCE

**INTERNATIONAL CONFERENCE ON
SUPPORT OF MODERN SCIENCE AND
INNOVATION**



Google Scholar

zenodo

OpenAIRE

doi • digital object
identifier


eoconf.com - from 2024

INTERNATIONAL CONFERENCE ON SUPPORT OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION: a collection scientific works of the International scientific conference – Madrid, Spain, 2025, Issue 4.

Languages of publication: Uzbek, English, Russian, German, Italian, Spanish,

The collection consists of scientific research of scientists, graduate students and students who took part in the International Scientific online conference «**INTERNATIONAL CONFERENCE ON SUPPORT OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION**». Which took place in Spain, 2025.

Conference proceedings are recommended for scientists and teachers in higher education establishments. They can be used in education, including the process of post - graduate teaching, preparation for obtain bachelors' and masters' degrees. The review of all articles was accomplished by experts, materials are according to authors copyright. The authors are responsible for content, researches results and errors.



MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASIDA KREATIVLIKNI RIVOJLANTIRISHGA YO'NALTIRILGAN FAOLIYAT TURLARI

Boboqulova Munisa

SamDU Urgut filiali Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Maktabgacha ta'lim tashkilotida kreativlikni rivojlantirishga yo'naltirilgan faoliyatlar bolalarning mustaqil fikrlashi, yangicha yondashuvlari va ijodiy salohiyatini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Ushbu jarayonda o'yin texnologiyalari, san'at, konstruktorlik, musiqiy va teatr mashg'ulotlari orqali bolalarda tasavvur, estetik did hamda muammoli vaziyatlarni hal etish ko'nikmalari rivojlanadi. Pedagoglar innovatsion metodlardan, interfaol usullardan va integratsiyalashgan mashg'ulotlardan foydalanib, har bir bolaning individualligini qo'llab-quvvatlashlari zarur. Bunday faoliyat bolani faollikka, mustaqil fikr bildirishga va ijtimoiylashuvga undaydi, natijada uning intellektual hamda shaxsiy rivoji uchun puxta zamin yaratiladi. Kreativlikni rivojlantirishga yo'naltirilgan faoliyatlar bolalarning shaxsiy rivoji, tafakkuri va ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishda asosiy omil hisoblanadi. Bu jarayonda pedagoglar zamonaviy innovatsion texnologiyalar, interfaol o'yinlar, san'at, musiqa va teatr elementlarini uyg'unlashtirgan mashg'ulotlardan foydalanadilar. Har bir faoliyat turi bolada mustaqil fikrlash, yangilikka intilish, muammolarni noodatiy hal etish ko'nikmasini rivojlantiradi. Shuningdek, kreativ yondashuv orqali bolaning kommunikativ madaniyati, estetik didi va o'ziga bo'lgan ishonchi ortadi. Natijada, bu jarayon maktabgacha ta'lim muassasasining asosiy maqsadi — har tomonlama barkamol, ijodkor, mustaqil fikrlovchi shaxsni tarbiyalashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Kreativlik, pedagogik faoliyat, pedagogik faoliyatga kreativ yondashuv, maktabgacha ta'lim, maktabgacha ta'lim yo'nalishidagi talabalar, innovatsion texnologik jarayon, tarbiyachi, ijodiy faoliyat.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining, 2019 yil 8-mayda PQ-4312-son qarori "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish" konsepsiyasi qabul qilingan bo'lib, unda Respublikamizda maktabgacha ta'limga e'tibor qaratilgan. Chunki bolalar kelajagimiz poydevori hisoblanadi. "Sifatli maktabgacha ta'limni berish asoslaridan biri boshqaruv va pedagog kadrlarni tayyorlash darajasi va ularning professionalizmi hisoblanadi. Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, bolalarning sifatli maktabgacha ta'limdan teng foydalanishini ta'minlash, maktabgacha ta'lim xizmatlarining nodavlat sektorini rivojlantirish maqsadida, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 30-sentabrdagi

“Maktabgacha ta’lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ-3955-son [qaroriga](#) muvofiq:[1]

1. Quyidagilar:

a) O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi (keyingi o‘rinlarda — Konsepsiya) 1-ilovaga muvofiq, quyidagilarni nazarda tutgan holda:

maktabgacha ta’lim sohasidagi normativ-huquqiy bazani yanada takomillashtirish;

maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish;

bolalarning sifatli maktabgacha ta’lim bilan qamrovini oshirish, undan teng foydalanish imkoniyatlarini ta’minlash, mazkur sohada davlat-xususiy sherikligini rivojlantirish;

maktabgacha ta’lim tizimiga innovatsiyalarni, ilg‘or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish;

O‘tgan davr mobaynida ushbu yo‘nalishda keng ko‘lamli ishlar bajarildi. Chunonchi, “Maktabgacha ta’lim” bakalavriat ta’limi yo‘nalishi bo‘yicha oliy ta’lim muassasalariga qabul qilish kvotalari oshirildi, mazkur yo‘nalishda o‘qish muddati uch yilgacha qisqartirildi.[2.129-131 b] Maktabgacha ta’lim yo‘nalishidagi talabalarning pedagogik faoliyatda kreativligini rivojlantirish deganda avvalo pedagogik faoliyat tushunchasiga to‘xtalib o‘tamiz: Maktabgacha ta’lim yo‘nalishidagi talabalarning pedagogik faoliyatiga kreativ yondashuv yosh avlod vakillarida zamonaviy jamiyatimizga kirib kelayotgan innovatsion texnologik jarayonlarda faol bo‘lish imkoniyatlarini kengaytiradi, kreativ fikrlash ko‘nikmalarini yanada shakllantirib, erkin mavzularda erkin fikr bildirish bilan birga o‘xshamas, o‘zgalar fikridan ajralib turuvchi fikrlarni namoyon qilish xislatlarini oshiradi. Pedagogik amaliyot davrida bo‘lajak pedagog-tarbiyachining maktabgacha ta’lim muassasalarida amalga oshiradigan ishlari ularda kasbiy mahoratni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Pedagogik amaliyot davrida bo‘lajak pedagog-tarbiyachilarda o‘z kasbiga moyillik, pedagogik faoliyatga ijodiy yondashish, o‘zi egallagan zamonaviy bilimlarni amaliy tajribasida qo‘llash, rahbarlik ko‘nikmalarini egallash, tarbiyachi shaxsini pedagogik-psixologik jihatdan o‘rganish, tahlil qilish, madaniy ommaviy tadbirlarni tashkil etish metodlarini o‘zlashtirish kabi ko‘nikmalar faollashadi hamda mustahkamlanadi. Bu ko‘nikmalar bo‘lajak pedagog tarbiyachini tarbiyachilik faoliyatiga tayyorlaydi. Shu bilan bir qatorda bo‘lajak pedagog tarbiyachilar o‘z kasbiy faoliyatlari davomida amal qiladigan bir qator qoidalarini ham o‘zlashtirishlari kerak

Ular:

- bo‘lajak tarbiyachilarda ongli intizomni tarkib toptirish;
- bolalarga nisbatan adolatli munosabatda bo‘lish;

- guruhdagi faol tarbiyalanuvchilarni qo'llab-quvvatlash va ularga yordam ko'rsatish;
- tarbiyalanuvchilarning mustaqil faoliyatlarini munosib rag'batlantirish;
- tarbiyalanuvchilar bilan topshiriqlar ustida tizimli ishlash va bu jarayonda ularni faollashtirish;
- tarbiyalanuvchilari orasida tarbiyaviy tadbirlarni tizimli tarzda tashkil etish kabilar.

O'z davrining mashhur pedagog-gumanisti, chexlik yozuvchi Yan Amos Komenskiy o'qituvchining bola dunyoqarashini rivojlantirishdagi "kreativlik" tushunchasi turli hil ta'riflarga ega. G'arbliklar uchun kreativlik, umuman olganda, yangilik hisoblanadi. Ular kreativlik negizida noan'anaviylik, qiziquvchanlik, tasavvur, hazil- mutoyiba tuyg'usi va erkinlik tushunchalari bo'lishiga e'tiborni qaratadilar. Sharq kishilari esa, aksincha, kreativlikni ezgulikning qayta tug'ilish jarayoni, deb ta'riflaydilar. [3.127-128 b] Garchi g'arblik va sharqliklarning kreativlik borasidagi qarashlari turlicha bo'lsada, biroq, har ikki madaniyat vakillari ham kreativlikni yuqori baholaydilar. Bo'lajak pedagog tarbiyachi kreativ faoliyatni tashkil etishda muammoli masalalarni yechish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, shuningdek, pedagogik xarakterdagi ijod mahsulotlarini yaratishga alohida e'tibor qaratishi zarur.

Kreativ shaxs - jarayon yoki natija sifatida ijodkorlikni namoyon etuvchi, masalalarni yechishga nostandart usullar bilan yondasha olishga moyil, o'ziga xos harakatlarni tashkil etish, yangiliklarni ilgari surishga, ijodiy mahsulotlarni yaratishga layoqatli va tayyor shaxs. Unda pedagogik mahoratning quyidagi tarkibiy qismlari aks etishi kerak: Har bir talaba uchun dolzarb bo'lgan hayotiy mazmun rivojlanishini, talabaning shu rivojlanish kesmasida, harakat qila olishida, uning hayot mamunining ochilishi va amalga oshishida o'qituvchi qanday bilim bilan unga yordam ko'rsata olishini bila olish» qobiliyati; ayrim o'qituvchilar rivojlanish mazmuni va kesmasi integrasiyasi hisoblangan hamdajonli organizm sifatida talabalar guruhini uning rivojlanish va mazmun kasb eta borish jarayonida «ko'ra olish»qobiliyati; integral mazmuni va integral rivojlanish kesmasini idrok etish malakasi; o'zining organizmini yuksak darajada anglash. Auditoriya, talaba o'z istaklari, motivlari, afzal ko'rishi jihatidan ular uchun zarur bo'lgan haqiqiy axborotlarni ajrata olish malakasi; shaxsiy xususiyatlar oqibati sifatida vujudga keladigan turli buzilish vaziyatlaridan idrokni chalg'itish; o'z sezgilarining nozik farqilanish imkoniyatlari vositasida yuqori his bilan boshqarish; keng boshqaruv repertuari, boshqarishning xilma-xil uslublari, axborotlarni uzatish «qurollari»: ovoz, hatti-harakat, mimika va boshqalarni egallash; kasbiy usullar va metodlarning keng jamg'armasi; metodologiyani egallash. Demak, yuqoridagi berilgan ta'riflardan kelib chiqqan holda, bo'lajak tarbiyachilarning pedagogik faoliyatda kreativligini

rivojlantirishda talabalarda mavjud ijodiy qobiliyatlarni albatta, inobatga olish lozim.[4. 185 -b] Bu inobatga olingan xususiyatlar bo'lajak tarbiyachilarga kreativ faoliyati davomida faqatgina foyda uchun xizmat qiladi.

Maktabgacha ta'lim tizimi jamiyatning kelajagini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu ta'lim bosqichida bolalar nafaqat bilim olish, balki o'zini ifoda etish, ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish, hissiy intellektni shakllantirish kabi muhim fazilatlarni ham egallaydilar. Maktabgacha ta'lim tarbiyachilari bolalarning rivojlanishida va o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashda asosiy rolni o'ynaydi. Shuning uchun, pedagogik kreativlikning ta'lim jarayoniga joriy etilishi tarbiyachilarning kasbiy kompetentligini oshirishga muhim hissa qo'shadi. Kreativlik pedagogik faoliyatda yangi va samarali yondashuvlarni, metod va texnologiyalarni ishlab chiqish, o'quv muhitini va bolalar bilan muloqotni boyitish imkonini beradi. Maktabgacha ta'lim tarbiyachilari uchun kreativ pedagogik metodlarni qo'llash, o'z navbatida, bolalarning shaxsiy rivojlanishiga, muloqot ko'nikmalarini oshirishga va fikrlashni mustahkamlashga yordam beradi.

Shuning uchun, pedagoglarning kasbiy kompetentliklarini oshirishda kreativlik asosidagi yondashuvning roli ortib bormoqda. Maqolaning maqsadi maktabgacha ta'lim tarbiyachilarining kasbiy kompetentligini oshirishda pedagogik kreativlik asosidagi yondashuvlarning ahamiyatini tahlil qilish va bu

jarayonda qo'llaniladigan metodlar va usullarni ko'rsatishdan iboratdir. Shuningdek, kreativ pedagogik yondashuvlar maktabgacha ta'lim tizimining sifatini yaxshilashda qanday ro'l o'ynashi, tarbiyachilarning malakalarini oshirish va ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalardan qanday foydalanish masalalari ham o'rganiladi.

Ta'lim sohasiga qo'yiladigan talablar orasida maktabgacha ta'lim tashkilotlari mutaxassislarining kasbiy va kreativ faoliyat markazlarida tashkil etiladi. Bu esa o'z-o'zidan shuni ko'rsatadiki, bo'lajak mutaxassislarni tayyorlayotgan oliy ta'lim muassasalarida faoliyat yuritadigan pedagoglardan ham o'quv jarayoniga mazmunan va shaklan yangiliklar kiritishni, ta'lim jarayoniga kreativlikni olib kirishni taqazo etadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faoliyat olib boruvchi bo'lajak mutaxassislarda kreativ kompetentligini rivojlantirish metodikasini integrative yondashuv asosida takomillashtirish bo'lajak mutaxassislarning har qanaqa jarayonda o'zining ijodiy va kreativ qobiliyatlarini namoyon qilishida foydali va kerakli jihatlarini ko'rsatadi.[5-25-31b] O'sib kelayotgan yosh avlodni yangi zamon talablariga to'laqonli javob bera oladigan, har qanaqa vaziyatga kreativ yondasha oladigan, dunyoni yangicha qarashlar bilan anglaydigan kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish, ularda kreativ fikrlash va tafakkurni shakllantirish eng avvalomaktabgacha ta'lim tashkilotlarida faoliyat olib boruvchi pedagog, mutaxassislardan kasbiy faoliyatlarida kreativ kompetentlikni talab etmoqda.

Barkamol shaxsni voyaga yetkazishda roli beqiyos sanaladigan maktabgacha ta'lim tashkiloti bo'lajak tarbiyachilari hamda mutaxassislarini kreativ kompetentligini rivojlantirish eng avvalo oliy ta'lim muassasasi pedagoglarining zimmasidadir.

Ma'lumotlarga qaraganda (yoshlar psixologiyasiga ko'ra) olti yoshgacha bo'lgan bolalar 40% iste'dod potentsialiga ega ekanlar. Bolalar eng kichik yoshdanoq ijodkorlik, yaratuvchanlikka juda moyil bo'lar ekanlar. Shunday ekan, ayni shu davr bolalarda kreativ qobiliyatlarini shakllantirishning ayni vaqtidir. Buning uchun albatta maktabgacha ta'lim tashkilotidagi mutaxassislarning o'zida kreativ sifat va kreativ kompetentlik shakllangan bo'lishi kerak.

Hozirgi zamon ta'lim jarayoniga Oliy ta'lim muassasasida taxsil oluvchi bo'lajak tarbiyachilarni o'qitishda "Kreativ Pedagogika asoslari" fanining qo'shilgani talabalarning kelajakdagi kasbiy faoliyatlarida zarur bo'lguvchi kreativ kompetentligini rivojlantirilishi ta'lim jarayonini samarali va sifatli tashkil etishda xizmat qiluvchi omil bo'ladi desak, adashmaymiz.

Kreativlikning mazmun va mohiyatiga to'xtaladigan bo'lsak, mamlakatimizdagi bir qator Pedagog olimlarning o'quv – metodik qo'llanmalarini tahlil qilgan holda, quyidagilarni aytishimiz mumkin: Kreativlik (lot,ingl. "create"-yaratish, "creative" yaratuvchi, ijodkor)-individdning yangi g'oyalar ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi hamda mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati. Kreativ kompetentlik esa- pedagogik faoliyatga nisbatan tanqidiy va ijodiy yondoshish, o'zining ijodkorlik malakalariga egaligini namoyish eta olishidir.

Maktabgacha ta'limda kreativlik, birinchi navbatda, pedagogning bolalar bilan ishlashdagi yondashuviga taalluqlidir. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, pedagogic kreativlik o'qituvchining o'z ishiga bo'lgan yondashuvini, uning o'quvchilari bilan aloqasini, va yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llashdagi qobiliyatini aks ettiradi. Kreativ pedagoglar bolalar o'rtasida o'ziga xos va ijodiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan metodlarni, o'yin va interaktiv faoliyatlarni qo'llashadi, bu esa bolalar o'qish va o'rganishga bo'lgan qiziqishini oshiradi.[6-210 b] Shuningdek, maktabgacha ta'limda kasbiy kompetentlik o'qituvchining nafaqat bilimlari, balki pedagogik metodlarni samarali qo'llay olish qobiliyatiga ham bog'liq. Maktabgacha ta'lim tarbiyachilarining kasbiy kompetentligi pedagogning o'zining shaxsiy va professional rivojlanishiga, metodik va psixologik bilimlariga, shuningdek, bolalar bilan ishlashdagi individual yondashuviga to'g'ri keladi.

Raqamli texnologiyalarning rivojlanishi maktabgacha ta'limda pedagogic metodlarni yangilash zaruratini tug'dirgan. O'qituvchilar va tarbiyachilar o'z faoliyatlarida zamonaviy o'qitish texnologiyalarini, multimedia vositalarini, va onlayn resurslarni qo'llash orqali o'quvchilarning qiziqish va motivatsiyasini oshirishi mumkin. Bunday yondashuvlar

pedagogning kreativ yondashuvini va pedagogik kompetentligini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. usullarini ishlab chiqishdir. Maqolada olib borilgan tadqiqotda sifatli va miqdoriy metodlardan foydalanilgan.

Tadqiqotning asosiy metodologik yondashuvi– amaliyotga asoslangan tadqiqotdir, ya'ni maktabgacha ta'lim tarbiyachilarining kasbiy kompetentligini oshirish jarayonida pedagogik kreativlikni qo'llashning samaradorligi o'rganilgan. Tadqiqotda, birinchi navbatda, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va kreativ metodlarning maktabgacha ta'limda qo'llanishi haqidagi adabiyotlar tahlil qilindi. Shuningdek, tajriba va intervyu metodlari orqali pedagoglarning kasbiy kompetentlik darajasi va kreativlikni rivojlantirishga bo'lgan ehtiyojlari o'rganildi. Bu metod orqali tarbiyachilarning pedagogik yondashuvlari va metodologik ko'nikmalarini tahlil qilish mumkin bo'ldi. Bunda pedagoglarning o'qitish metodlari, bolalar bilan ishlashusullari, va o'qituvchi sifatida o'zlarini qanday rivojlantirishlari haqida fikrlar yig'ildi.[7-40–46 b]

Qolaversa, tajriba o'tkazish orqali pedagogik kreativlikni oshirishga qaratilgan treninglar, seminarlar, va onlayn kurslar ta'siri o'rganildi. Bu metodlar pedagogik kompetentlikni oshirish va o'quv jarayonining sifatini yaxshilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, metodologiyada pedagogik amaliyotlar va o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishi masalalariga katta ahamiyat berilgan.

Maqolaning asosiy maqsadi – pedagogik kreativlik asosida maktabgacha ta'lim tarbiyachilarining kasbiy kompetentligini oshirishning amaliy usullarini ishlab chiqishdir. Maqolada maktabgacha ta'lim tizimida pedagogik kreativlik asosida tarbiyachilarning kasbiy kompetentligini oshirish zaruriyati tahlil qilindi. Tadqiqotlar va adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, pedagogik kreativlik bolalar bilan ishlashda tarbiyachilarning ijodkorlik va yangi yondashuvlarni qo'llashga bo'lgan qobiliyatini rivojlantiradi. Bu esa nafaqat bolalar o'rtasida kreativ fikrlashni rag'batlantiradi, balki ularning ijtimoiy va emotsional rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Maktabgacha ta'lim tarbiyachilari kasbiy kompetentligini oshirishda kreativ pedagogik metodlarning samarali qo'llanilishi katta ro'l o'ynaydi. Pedagogik kompetentlik faqatgina bilimlarni o'zlashtirish emas, balki pedagogning o'z faoliyatini samara bilan tashkil etish, bolalar bilan muloqotni rivojlantirish va yangi ta'lim texnologiyalarini o'zlashtirish qobiliyatini ham o'z ichiga oladi.

Zamonaviy pedagogik va innovatsion yondashuvlar tarbiyachilarning kasbiy malakalarini oshiradi, ta'lim jarayonining sifatini yaxshilashga imkon beradi. Shuningdek, pedagogik kreativlikni rivojlantirish jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan, interaktiv metodlardan va onlayn resurslardan foydalanish tarbiyachilarning malakasini yanada oshiradi. Pedagogik yondashuvlarni yangilash va innovatsiyalarni joriy etish, maktabgacha ta'lim tizimining sifatini yaxshilashga xizmat qiladi. Shuni

ta'kidlash kerakki, kreativ pedagogik metodlarni qo'llash, tarbiyachilarning o'z shaxsiy rivojlanishiga hamda ularning pedagogik ko'nikmalarini yanada mustahkamlashga imkon yaratadi. Shu bilan birga, pedagoglarning kasbiy kompetentligini oshirishda doimiy ravishda o'quv seminarlari, treninglar va ilmiy izlanishlarga e'tibor qaratish zarur.[8-198 b] Bu pedagoglarning yangi bilimlar va ko'nikmalarni o'zlashtirishiga yordam beradi, ta'lim jarayonida yuzaga keladigan yangi talablarga tez moslashish imkonini yaratadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Maktabgacha ta'lim tizimida bolalarning kreativlik (ijodkorlik) qobiliyatini rivojlantirish bo'yicha olib borilgan ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, bu jarayon bolalarning tafakkur, tasavvur, nutq, hissiy va ijtimoiy rivojlanishini ta'minlaydigan kompleks faoliyatni talab etadi. Psixolog va pedagog olimlar (L.S. Vygotskiy, J. Gilford, E. Torrens, A.V. Brushlinskiy va boshqalar) tadqiqotlarida kreativlik bolaning tabiiy qiziqishi va erkin fikrlash qobiliyatiga asoslanishi zarurligi ta'kidlanadi. O'zbekistonlik olimlar (N. Yo'ldosheva, M. To'xtayeva, G. Ashurova va b.) tadqiqotlarida maktabgacha ta'lim muassasalarida kreativlikni rivojlantirish uchun o'yin, badiiy ijod, musiqiy va texnik faoliyat turlaridan foydalanish samarali ekanligi isbotlangan. Shu bilan birga, bolalarning mustaqil fikrlashini rag'batlantiruvchi muhit, innovatsion metodlar (loyiha usuli, muammoli o'qitish) ham muhim omil sifatida ko'rsatilgan. Adabiyotlar tahlilidan xulosa qilinadigan bo'lsa, kreativlikni rivojlantirishga yo'naltirilgan faoliyatlar bola shaxsining har tomonlama kamol topishiga, uning ijtimoiy faol va mustaqil tafakkur sohibi bo'lib shakllanishiga xizmat qiladi.

XULOSA. Maktabgacha ta'lim muassasalarida kreativlikni rivojlantirishga yo'naltirilgan faoliyatlar bolalarning tabiiy qiziqishi, tasavvuri va tafakkurini faollashtiruvchi muhim pedagogik jarayondir. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, ijodkorlikni rivojlantirish uchun o'yin, san'at, musiqa, texnik ijodkorlik hamda tajriba asosidagi mashg'ulotlar katta ahamiyatga ega. Bu faoliyat turlari bolada mustaqil fikrlash, o'ziga ishonch, yangilikka intilish va muammolarni noodatiy hal etish ko'nikmalarini shakllantiradi. Shuningdek, pedagogning ijodkorlikni qo'llab-quvvatlovchi yondashuvi, erkin muhit va innovatsion metodlardan foydalanish jarayon samaradorligini oshiradi. Natijada, bola nafaqat bilim oladi, balki o'z fikrini ijodiy tarzda ifoda etishni, o'z imkoniyatlarini anglashni o'rganadi. Shu bois, kreativlikni rivojlantirish maktabgacha ta'limning asosiy vazifalaridan biri sifatida e'tirof etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 08.05.2019 yildagi PQ-4312-

son. <https://lex.uz/docs/-4327235>

- 2.Матмусаева, М. А. Талабалар портфолиоларини тайёрлаш шароитлари. In Сборники конференций НИЦ Социосфера (No. 9, pp. 129- 131). Vedecko vydavatelske centrum Sociosfera-CZ sro
- 3.Матмусаева, М. А. Талабаларнинг ўқув фаолиятларини назорат қилишнинг инновацион характери. In Сборники конференций НИЦ Социосфера 2016-ншд (No.9,pp.127-128).
4. G'anieva, M. M.Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodiy fikrlashni rivojlantirish metodikasi. – Toshkent: Iqtisod-Moliya.2021-yil – 185 b.
- 5.Xodjayeva, D. T. “Kreativ yondashuv asosida maktabgacha yoshdagi bolalarda tafakkurni rivojlantirish”. // Maktabgacha ta’lim jurnali, 2018-yil №4.– B. 25–31.
- 6.To’xtayeva, M. Sh. Maktabgacha yoshdagi bolalarda kreativlikni shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari. – Toshkent: TDPU nashriyoti. – 2022-yil 210 b.
- 7.Nurmatova, Z. R.“Bolalarda ijodiy faoliyatni rivojlantirishda o’yin texnologiyalarining o’rni”. // *Ta’lim va innovatsiya ilmiy jurnali*, 2022-yil №2. – B. 40–46.
- 8.Qodirova, N. M. Maktabgacha ta’lim jarayonida bolalarning kognitiv faoliyatini rivojlantirish texnologiyasi. – Toshkent: “Yangi asr avlodi”.2019-yil – 198 b.

